Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 37.013.43:796
ORCID: 0009-0004-5578-425X

ABDULLOYEV YASHNARJON MAHKAMOVICH
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: yashnar2020@gmail.com

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA OSIYO XALQ O'YINLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY SALOHIYATI

ANNOTATSIYA: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida ta'lim oluvchilar shaxsini milliy-madaniy an'analarni hisobga olgan holda har tomonlama va uyg'un rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalarni aniqlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ana shunday vositalardan biri sifatida Osiyo xalqlarining an'anaviy o'yinlari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ular yuqori darajadagi ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi Osiyo xalq o'yinlarini O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil va umumlashtirish, qiyosiy-tipologik yondashuv hamda pedagogik modellashtirish elementlaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Osiyo xalq o'yinlari ta'lim oluvchilarda jismoniy faollikni rivojlantirish, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish, axloqiy-irodaviy sifatlarni mustahkamlash, madaniy merosga hurmat va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish uning tarbiyaviy yo'nalganligini oshirishi hamda etnopedagogik yondashuvni samarali amalga oshirishga imkon yaratishi aniqlangan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan xulosalar turli bosqichdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari va metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR: *ta'lim, tarbiya, Osiyo xalq o'yinlari, etnopedagogika, madaniy an'analar, ta'lim jarayoni, jismoniy tarbiya, milliy qadriyatlar, pedagogik salohiyat.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ АЗИАТСКИХ НАРОДНЫХ ИГР В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ: В условиях модернизации системы образования Республики Узбекистан особую актуальность приобретает задача выявления эффективных педагогических средств, направленных на всестороннее и гармоничное развитие личности обучающихся с учётом национально-культурных традиций. Одним из таких средств являются традиционные игры народов Азии, обладающие высоким образовательным и воспитательным потенциалом. Целью данного исследования является теоретическое обоснование и анализ возможностей интеграции азиатских народных игр в современную систему образования Узбекистана. В ходе исследования использовались методы анализа и обобщения научно-педагогических источников, сравнительно-типологический подход, а также элементы педагогического моделирования. Полученные результаты свидетельствуют о том, что азиатские народные игры способствуют развитию физической активности обучающихся, формированию коммуникативных компетенций, укреплению морально-волевых качеств, воспитанию уважительного отношения к культурному наследию и повышению социальной ответственности. Установлено, что систематическое внедрение народных игр в образовательный процесс усиливает его воспитательную направленность и обеспечивает эффективную реализацию этнопедагогического подхода. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования полученных выводов при разработке учебных программ и методических рекомендаций для образовательных учреждений различных уровней.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *образование, воспитание, азиатские народные игры, этнопедагогика, культурные традиции, образовательный процесс, физическое воспитание, национальные ценности, педагогический потенциал.*

EDUCATIONAL AND UPBRINGING POTENTIAL OF ASIAN FOLK GAMES IN THE EDUCATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ABSTRACT: In the context of modernization of the education system of the Republic of Uzbekistan, the task of identifying effective pedagogical tools aimed at comprehensive and harmonious development of learners' personalities while taking into account national and cultural traditions becomes particularly relevant. One of such tools is traditional Asian folk games, which possess significant educational and upbringing potential. The purpose of this study is to provide a theoretical justification and analysis of the possibilities of integrating Asian folk games into the modern education system of Uzbekistan. The research employed methods of analysis and synthesis of scientific and pedagogical literature, a comparative-typological approach, and elements of pedagogical modeling. The findings indicate that Asian folk games contribute to the development of learners' physical activity, the formation of communicative competencies, the strengthening of moral and volitional qualities, the cultivation of respect for cultural heritage, and the enhancement of social responsibility. It has been established that the systematic incorporation of folk games into the educational process increases its educational orientation and ensures effective implementation of the ethnopedagogical approach. The practical significance of the study lies in the possibility of using the obtained conclusions in the development of curricula and methodological guidelines for educational institutions at various levels.

KEYWORDS: *education, upbringing, Asian folk games, ethnopedagogy, cultural traditions, educational process, physical education, national values, pedagogical potential.*

KIRISH. Globallashuv jarayonlari hamda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiyalashning jadal sur'atlari sharoitida innovatsion pedagogik yondashuvlarni milliy-madaniy merosni asrash va rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi ta'lim faqat bilimlarni uzatish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki barqaror axloqiy qarashlarga ega, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan va o'z xalqining madaniy merosiga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, ta'lim oluvchilarga kompleks ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan etnopedagogik vositalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Mazkur vositalar qatorida Osiyo xalqlarining an'anaviy xalq o'yinlari muhim o'rin egallaydi. Ular Sharq xalqlari tarixi va madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllangan bo'lib, tarbiya amaliyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan. Xalq o'yinlari dastlab faqat hordiq va ko'ngilochar faoliyat bilan cheklanmagan, balki ijtimoiy tartibga solish, tarbiyalash hamda o'qitish vazifalarini ham bajargan. Ushbu o'yinlar orqali jismoniy sifatlar rivojlantirilgan, axloqiy-irodaviy barqarorlik mustahkamlangan, muloqot madaniyati va jamoaviylik qadriyatlari shakllantirilgan.

Shunga qaramay, Osiyo xalq o'yinlarining yuqori pedagogik imkoniyatlariga qaramasdan, ularni O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish masalasi hanuzgacha yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, etnopedagogika, milliy tarbiya an'analari hamda xalqona ta'lim vositalaridan foydalanish muammolari alohida tadqiqotlarda yoritilgan. Biroq Osiyo xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga maqsadli va izchil integratsiyalash masalasi ko'pincha parchalangan holda ko'rib chiqilgan. Natijada, ta'lim tizimining samarali tarbiyaviy vositalarga bo'lgan obyektiv ehtiyoji bilan ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarining ilmiy-metodik jihatdan yetarli ishlab chiqilmaganligi o'rtasida muayyan qarama-qarshilik vujudga kelmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Osiyo xalq o'yinlarining ta'limiy-tarbiyaviy salohiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda ularni O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Belgilangan maqsadga erishish xalq o'yinlarining mazmun-mohiyatini va funksional xususiyatlarini tahlil qilish, ularning tarbiyaviy hamda ta'limiy ta'sirlarini ochib berish, shuningdek, ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida xalq o'yinlaridan foydalanish muammosi uzoq yillar davomida etnopedagogika, tarbiya nazariyasi hamda jismoniy tarbiya metodikasi sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar e'tibor markazida bo'lib kelgan [3, 5, 9]. Etnopedagogikaning nazariy asoslarini yaratgan tadqiqotchilar asarlarida xalq an'analari va o'yin faoliyati shakllari shaxsning axloqiy sifatlarini shakllantirish, shuningdek, madaniy-tarixiy tajribani avloddan avlodga yetkazishning muhim vositasi sifatida talqin etiladi [1, 5, 7]. Ushbu g'oyalar keyingi ilmiy izlanishlarda yanada rivojlantirilib, xalq pedagogikasi zamonaviy ta'limni insonparvarlashtirishning muhim manbai sifatida baholanadi [2, 6].

Jismoniy tarbiya va o'yin faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda harakatli hamda xalq o'yinlarining jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat faolligiga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytirish va ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashdagi roli alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, o'yin faoliyati nafaqat jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi, balki iroda sifatlari, intizom, o'zini boshqarish va samarali muloqot ko'nikmalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi [1, 4, 8].

Milliy tarbiya an'analari va xalqona ta'lim vositalaridan zamonaviy maktab sharoitida foydalanish masalalari o'zbek olimlarining ilmiy ishlarida ham keng yoritilgan [1, 10]. Ushbu tadqiqotlarda xalq o'yinlari ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirishning samarali pedagogik vositasi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, an'anaviy o'yin madaniyati elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish uning tarbiyaviy yo'nalganligini sezilarli darajada oshirishi qayd etiladi.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili aksariyat tadqiqotlar parchalangan xarakterga ega ekanini ko'rsatadi: ular asosan umumiy etnopedagogik masalalar yoki jismoniy tarbiya metodikasining alohida jihatlariga qaratilgan. Aynan Osiyo xalq o'yinlarini O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga yaxlit pedagogik mexanizm sifatida maqsadli integratsiyalash masalasi esa hanuzgacha yetarli darajada nazariy asoslanmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi [7, 9].

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy ishlarida asoslab berilgan etnopedagogika konseptual qoidalari qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy-tipologik yondashuv, pedagogik modellashtirish hamda mantiqiy-tuzilmaviy

tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar majmuasidan foydalanish Osiyo xalq o'yinlarining ta'limiy-tarbiyaviy salohiyatini har tomonlama yoritish, shuningdek, olinayotgan xulosalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy qoidalarni amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maqsadida Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi 4- va 11-sonli umumta'lim maktablari bazasida pedagogik tajriba ishlari tashkil etildi. Tajribada jami 73 nafar o'quvchi ishtirok etdi, ulardan 36 nafari 4-sonli maktab, 37 nafari esa 11-sonli maktab o'quvchilari hisoblanadi. Tajriba ishlarining asosiy yo'nalishi Osiyo xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash samaradorligini aniqlash hamda ularning o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashdan iborat bo'ldi.


Tajribaning aniqlovchi bosqichida o'quvchilarda ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatkichlarning dastlabki holati belgilandi. Mazkur ko'rsatkichlar tarkibiga o'quv motivatsiyasi darajasi, intizomlilik, muloqot ko'nikmalarining rivojlanganligi hamda axloqiy-irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi kiritildi. Olingan natijalar o'quvchilarning aksariyatida ushbu ko'rsatkichlar o'rtacha darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Tajribaning shakllantiruvchi bosqichida esa Osiyo xalq o'yinlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tizimli ravishda joriy etish nazarda tutilib, ular jismoniy tarbiya darslari hamda darsdan tashqari mashg'ulotlar doirasida muntazam qo'llanildi.

Nazorat bosqichi yakunlari tadqiqot doirasida o'rganilgan ko'rsatkichlar barcha tajriba guruhlarida ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lganini ko'rsatdi. Jumladan, Oltinsoy tumanidagi 4-sonli umumta'lim maktabida ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatkichlarning integral darajasi 54 % dan 71 % gacha oshgan bo'lsa, 11-sonli maktabda mazkur ko'rsatkich 56 % dan 74 % gacha yetdi. Bu holat xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga joriy etish sezilarli pedagogik samaradorlikka ega ekanini yaqqol tasdiqlaydi hamda ularning yuqori tarbiyaviy salohiyatini ko'rsatib beradi.

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni asoslash imkonini beradiki, Osiyo xalq o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarning bilish va harakat faolligini rag'batlantiradi, intizomni mustahkamlaydi, hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda milliy-madaniy qadriyatlarga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantiradi. Tadqiqot natijalari xalq o'yinlarini ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonining samarali vositasi sifatida talqin qiluvchi olimlar xulosalari bilan uyg'unlashadi va bir vaqtning o'zida ushbu qarashlarni O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablari sharoitida yanada boyitadi.

Oltinsoy tumani 4- va 11-maktab o'quvchilarining ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatkichlari darajasining o'zgarishi
1-jadval.

O'quv muassasasi	O 'quvchilar soni	Boshlahg'ich daraja, %	Yakuniy daraja, %
4-maktab (Oltinsoy tumani)	36	54	71
11-maktab (Oltinsoy tumani)	37	56	74



1-rasm.

Pedagogik tajriba jarayonida maktab o'quvchilarining ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi

Izoh. Grafikda pedagogik tajribada ishtirok etgan har ikkala maktab o'quvchilarida tadqiqot doirasida o'rganilgan ko'rsatkichlarning ijobiy o'zgarishlari yaqqol aks ettirilgan. Yakuniy natijalarni ifodalovchi chiziqlar dastlabki ma'lumotlarga nisbatan barqaror o'sishni namoyon etib, Osiyo xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqot natijalari Osiyo xalq o'yinlarining O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi yuqori ta'limiy-tarbiyaviy salohiyatini nazariy jihatdan asoslash va tajriba-sinov ishlari orqali isbotlash imkonini berdi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili hamda pedagogik eksperiment natijalari xalq o'yinlari ta'lim oluvchilarning jismoniy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatuvchi samarali pedagogik vosita sifatida qaralishi mumkinligini ko'rsatdi.

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi 4- va 11-sonli umumta'lim maktablari bazasida 73 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba yakunlari ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatkichlarda barqaror ijobiy dinamikani aniqladi. Tajribaning shakllantiruvchi bosqichida o'quv motivatsiyasi, intizomlilik darajasi, muloqot ko'nikmalari hamda axloqiy-irodaviy sifatlarning sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Har ikkala maktabda umumlashtirilgan ko'rsatkichlarning o'sishi Osiyo xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda kiritish yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida eng yuqori pedagogik samaraga erishish bir qator shart-sharoitlarga amal qilinganda ta'minlanishi aniqlandi. Jumladan, o'yinlarni tanlashda o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish, o'yin faoliyatini dars mashg'ulotlari hamda darsdan tashqari ishlar mazmuniga metodik jihatdan asoslangan holda integratsiyalash, shuningdek, pedagoglarning ta'lim amaliyotida etnomadaniy komponentdan foydalanishga tayyorligi muhim omillar sifatida belgilandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda olingan xulosalar umumta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini takomillashtirish, metodik tavsiyalar hamda tarbiyaviy tadbirlar mazmunini ishlab chiqishda samarali qo'llanishi mumkin. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sinf rahbarlari va metodistlar tomonidan ta'lim jarayonining tarbiyaviy yo'nalganligini kuchaytirish, shuningdek, etnomadaniy komponent asosida tarbiyaviy ishlarni boyitishda foydalanish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Keyingi ilmiy izlanishlarning istiqbollari tajriba-sinov bazasini kengaytirish, Osiyo xalq o'yinlarining ta'lim oluvchilarda ayrim shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ta'sirini chuqurroq o'rganish, shuningdek, turli yosh guruhlari uchun ularni qo'llashning differensial metodikalarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.1.Волков Г.Н. Этнопедагогика. - М.: Академия, 2000. - 168 b. (Volkov, G. N. Ethnopedagogy. Moscow: Akademiya, 2000. 168 p.).

2.Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - М.: Физкультура и спорт, 2020. - 544 b. Matveev, L. P. Theory and Methodology of Physical Culture. Moscow: Fizkultura i Sport, 2020. 544 p.).

3.Лях В.И., Зданевич А.А. Физическая культура. Методика обучения. - М.: Просвещение, 2021. - 207 b. (Lyakh, V. I., & Zdanevich, A. A. Physical Culture. Teaching Methodology. Moscow: Prosveshchenie, 2021. 207 p.).

4.Бальсевич В.К. Очерки по возрастной кинезиологии человека. - М.: Советский спорт, 2019. - 220 b. (Balsevich, V. K. Essays on Human Age-Related Kinesiology. Moscow: Sovetsky Sport, 2019. 220 p.).

5.Панькин А.Б. Этнопедагогика в системе современного образования. - М.: Педагогика, 2020. - 198 b. (Pankin, A. B. Ethnopedagogy in the System of Modern Education. Moscow: Pedagogika, 2020. 198 p.).

6.Кожахметова З.Б. Народная педагогика и современное воспитание. - Алматы: Білім, 2014. - 184 b. (Kozhakhmetova, Z. B. Folk Pedagogy and Modern Education. Almaty: Bilim, 2014. 184 p.).

7.Мавлонова Р.А. Миллий тарбия назарияси ва амалиёти. - Тошкент: Ўқитувчи, 2016. - 212 б. (Mavlonova, R. A. Theory and Practice of National Education. Tashkent: O'qituvchi, 2016. 212 p.).

8.Юлдашев Н.Ю. Таълим жараёнида миллий қадриятлардан фойдаланиш масалалари. - Тошкент: Фан, 2018. - 176 б. (Yuldashev, N. Yu. Issues of Using National Values in the Educational Process. Tashkent: Fan, 2018. 176 p.).

9.Турсунов А.Х. Ўқувчилар тарбиясида халқўйинларининг ўрни. - Тошкент: Маънавият, 2017. - 144 б. (Tursunov, A. Kh. The Role of Folk Games in the Education of Schoolchildren. Tashkent: Ma'naviyat, 2017. 144 p.).

10. Рахимов Б.Х. Этнопедагогик ёндашув асосида тарбиялаш масалалари. - Самарқанд: СамДУ, 2019. - 158 б. (Rakhimov, B. Kh. Issues of Education Based on an Ethnopedagogical Approach. Samarkand: Samarkand State University, 2019. 158 p.).